

## TEACHING ARABIC GRAMMAR IN COMPARISON WITH ENGLISH GRAMMAR

**Shakirova Zulfiya**

**Candidate of Historical Sciences, Associate Professor**

**Uzbekistan International Academy of Islamic Studies**

**Associate Professor of the Department of “Arabic Language and  
Literature al-Azhar”**

**Abstract:** This article explores the advantages and effectiveness of learning the Arabic language by comparing it with English grammar rules. The author analyzes the similarities and differences in grammatical structure, sentence construction, articles, prepositions, and irregular verbs between the two languages. Specifically, the study highlights the peculiarities in pronunciation and writing, the differences in tense systems, and word formation from root words. The findings conclude that utilizing a comparative methodology reduces students' anxiety regarding grammar, facilitates easier acquisition, and develops their analytical skills.

**Keywords:** Arabic language, English language, comparative learning, grammar, sentence structure, teaching methodology, definite article.

**O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi**

**“Arab tili va adabiyoti al-Azhar” kafedراسи dotsenti**

**Shakirova Zulfiya**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqola arab tilini ingliz tili qoidalari bilan qiyoslagan holda o‘rganishning afzalliklari va samaradorligiga bag‘ishlangan. Muallif har ikki tilning grammatik tuzilishi, jumla qurilishi, artikllar, predloglar (ko‘makchilar) va

noto'g'ri fe'llardagi o'xshashlik hamda farqlarni tahlil qiladi. Xususan, ikkala tildagi talaffuz va yozuv o'rtasidagi o'ziga xosliklar, zamonlar tizimi hamda o'zakdan so'z yasalishidagi tafovutlar batafsil ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot xulosasiga ko'ra, qiyosiy metodikadan foydalanish o'quvchilarning grammatik qoidalarni tushunishidagi qo'rquvni kamaytiradi, o'zlashtirishni yengillashtiradi va ularning tahliliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Kalit so'zlar:** Arab tili, ingliz tili, qiyosiy o'rganish, grammatika, jumla tuzilishi, aniqlik artikli.

**Аннотация:** Данная статья посвящена преимуществам и эффективности изучения арабского языка путем его сравнения с грамматическими правилами английского языка. Автор анализирует сходства и различия в грамматической структуре, построении предложений, использовании артиклей, предлогов и неправильных глаголов в обоих языках. В частности, подчеркиваются особенности произношения и письма, различия в системе времен и словообразовании от корня. В заключении обосновывается, что применение сравнительной методики снижает страх перед грамматикой, облегчает усвоение материала учащимися и способствует развитию их аналитических навыков.

**Ключевые слова:** Арабский язык, английский язык, сравнительное изучение, грамматика, структура предложения, методика преподавания, определенный артикль.

Ma'lumki, til o'rganish va o'z ona tilidan tashqari bir yoki bir nechta tilni bilish turli xalqlar madaniyati bilan tanishish yoxud cheksiz ma'lumotlar oqimidan chetda qolmaslik uchun juda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi globalashuv davrida til o'rganish har qaysi toifa vakilining zarur ehtiyojidan biriga aylanib ulgurdi. Yangi asr boshlariga qadar ingliz, rus, fransuz va ispan tillarini o'rganishga dunyoda katta qiziqish va ehtyoj bo'lgan bo'lsa, endilikda bu qatorga arab tilini ham kiritmoqdamiz. Arab tili – bu dunyoning 300 million aholisi istiqomat qiladigan 20

dan ortiq mamlakatning rasmiy tilidir. Shuningdek, BMT, Arab davlatlari Ligasining, Islom konferentsiyasi va Afrika Ittifoqining rasmiy tili ham arab tilidir. Bundan tashqari, musulmonlarning muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni Karim ham arab tilida ekanligi arab bo‘lmagan musulmon o‘lkalarda ham bu tilning tarqalishi va so‘nggi yillarda o‘rganuvchilar sonining keskin ortishiga sabab bo‘lmoqda. Arab tilini bilish - go‘zalligi va betakrorligi bilan sug‘orilgan dunyoning eng qadimiy madaniyatlaridan biri bilan tanishish va uni to‘liq his qilish imkonini beradi.

Yangi tilni o‘rganish har doim ham oson kechadigan jarayon emas. Ayniqsa, grammatik jihatdan eng mukammal til deya qaraladigan arab tilini o‘rganish o‘rganuvchidan qunt va ziyraklik talab etadi. Arabshunos olimlar arab bo‘lmagan o‘lkalarda bu tilni ingliz tiliga qiyoslab o‘rganishning afzal tomonlari borligini ta’kidlashmoqda. Bunga sabab ikki tilning grammatik jihatdan ba’zi o‘xshashliklarga egaligidir. Arab bo‘lmagan xalqlar uchun arabcha-inglizcha kitoblar ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan. Ikki boshqa-boshqa oilaga mansub bo‘lgan tilni o‘zaro qiyoslasak, bir qancha *o‘xshash* hamda *farqli* tomonlarini ko‘rishimiz mumkin.

Mansubligiga ko‘ra ingliz tili german oilasiga, arab tili esa somiy (semit) tillar oilasining vakili hisoblanadi va turlicha alifboga asoslanadi. Harflar, ularning talaffuzi borasida boshqa tillarga qaraganda kamroq tafovut kuzatiladi. Ammo so‘zlar talaffuzidagi asosiy farqli - jihat ingliz tilida so‘zlar odatda, talaffuz qilinganidan boshqacha shaklda yoziladi. Arab tilida esa yozuv va talaffuzda farq mavjud emas. Bu holat arab tilini ingliz tili orqali o‘rganuvchilarda qulaylik tug‘diradi. Chunki endi ular so‘zning yozilishi va aytilishini alohida-alohda yodlashga majbur emas.

Ikki tilning grammatik qurilishiga kelsak, gaplarning tarkibiy tuzilish ketma-ketligi deyarli bir xil bo‘lganligi sababli tarjima va tushunish jarayonida qiyinchilik yuzaga kelmaydi. Ega (mubtado) va kesim (xabar) ning ikki til gap tuzilishida ham bir xil joy egallashi sababli bu tilni turk tillar oilasiga kiruvchi tillarga qiyoslab o‘rganishdan ko‘ra ingliz tiliga qiyoslash osondir. I wrote a letter - أنا كتبت مکتوبا.

Buni formula shaklida quyidagicha ifodalash mumkin:

### 1. Jumla tuzilishi (Sentence structure) Fe'liy jumla:

- **Ingliz tili: S + V + O**  $\Rightarrow$  **Arab tili: V + S + O**
- *I wrote a letter* - كتبت رسالةً

Yuqoridagi formula orqali fe'liy jumalarni o'rgatish oson bo'ladi.

Ismiy jumla tuzish ingliz tili qoidalari bilan bir xilda bo'ladi, ya'ni ega aniq holatda, ot kesim noaniq. Ingliz tili va arab tillarida aniqlik artiklining mavjudligi bu gap turini o'zlashtirishni osonlashtiradi.

- **Ismiy jumla: S + Predicate**
- *The boy is intelligent* - الولد ذكيٌّ

Arab tilidagi aniqlik va noaniqlik kategoriyalarini o'rgatishda ham ularning ingliz tilida ham mavjud ekanligi qo'l keladi.

### The - ال

a / an / - so'zning lug'atdagi shakli

- *a book* → كتاب
- *the book* → الكتاب

O'xshash qoidalarga ismiy gaplarda ko'makchilarning ot kesim oldidan kelishiga oid misollarni keltirish mumkin:

The book on the table → الكتاب على الطاولة

Shuningdek, o'timsiz fe'l yoki turli ma'nolarni anglatuvchi fe'l ma'nosini aniqlanishi uchun ko'makchilar ishlatilishi ham ikkala tilda bir xil ekanligini kuzatish mumkin.

### Fe'l + ko'makchi (Phrasal verbs)

- *depend on* → اعتمد على

Ammo, ba'zi holatlarda grammatik qoidalar tubdan farq qiladi. Masalan, arab tilidagi so'zlarning jins kategoriyasi yoki ikkilik son ingliz tilida mavjud emas. Bundan tashqari, ingliz tilida davrlar va holatlarni aniq ko'rsatish uchun, asosan, o'n oltida zamon shaklidan foydalaniladi. Arab tilida esa zamonlar nisbatan ancha kam bo'lib, ko'pincha bir-biridan zamon yasovchi qo'shimchalar yordamida farqlanadi. Masalan, ingliz tilida Past Simple Tense yordamida o'tgan zamoni Present Perfect Tense yordamida esa yaqinda tugallangan ish harakatni ifodalaymiz. Yesterday I write – men yozdim bo'lsa, I have just written – endigina yozib bo'ldim degan ma'noni anglatadi. Arab tilida esa o'tgan zamon shakli oldidan قد so'zini qo'shish orqali ingliz tilidagi Present Perfect Tense ni yasash mumkin. أنا قد كتبت – hozirgina yozib bo'ldim.

Ikki tilning yana bir o'xshash tomoni predloglarning qo'llanilishidir. Har ikki tilda ham predloglar otdan oldin qo'llaniladi va tarjima hamda qiyoslash uchun juda qulay. Masalan, I am studying *at* university - أنا أدرس في الجامعة. Boshqa tillarda kamdan-kam uchraydigan yana bir holat fe'llarning o'ziga xos predlog talab qilishi hamda predloglar yordamida fe'l ma'nolarining o'zgarishidir. Ingliz tilida phrasal verb deb ataladigan bu holat arab tiliga ham xosdir. Bu holat ikkala tilda ham bunday fe'llarni yodlab olish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

So'z yasalishi jihatidan ham ikkala tilni qiyoslab o'rganish qulay. Chunki ingliz tilida fe'ldan shu fe'lning ot, sifat va ravish shaklining yasalishi juda ko'p uchraydi. Arab tilida esa yangi so'zlar deyarli to'liq shu usulda yasaladi. Ta'kidlash joizki, arab tilida bir o'zakdan o'nlab yangi so'zlar yasash mumkin. Masalan, كتاب، مکتوب so'zlari o'zagidan hosil qilingan. مکتب، کتابة، مکتبة، کاتب، مکتوب

Yana bir e'tiborga molik jihat, boshqa ko'plab tillardan farqli ravishda ingliz va arab tilida noto'g'ri fe'llarning mavjudligidir. Ya'ni, fe'l ma'lum bir zamonda tuslanganda, fe'l tarkibida o'zgarish sodir bo'ladi. Arab tilida bunday fe'llar illatli o'zakli fe'llar deyiladi va uch turga bo'linadi:

1. Bo'sh fe'llar;
2. To'g'riga o'xshash fe'llar;
3. Noqis fe'llar.

Xulosa qilib aytganda, arab tili, umuman, til o'rganish – zamonaviy dunyoda har qaysi kasb egasi uchun muhim deb baholanmoqda. G'arb olamida ham Yaqin Sharqdagi voqealar rivojini o'rganish va ularga baho berish uchun ham arab tilini o'rganish, bu tilda erkin gaplasha olishga intilish kuchaymoqda. Jahonda keng yoyilgan til ingliz tili bo'lganligi uchun arablar tomonidan arab bo'lmagan xalqlar uchun ingliz tili-arab tili qo'llanmalari ishlab chiqilgan bo'lib, arab tilini ingliz tiliga qiyoslab o'rganish birmuncha oson. O'quvchilar qoidalarni tez o'zlashtiradilar, grammatik qoidalarni tushunmay qolish qo'rquvi kamayadi. Grammatik tuzulish bir-biriga yaqin, har ikki til uchun umumiy qoidalar mavjudligi ularni o'zlashtirish va qo'llashni yengillashtiradi. Qiyosiy jadvallardan foydalanish esa yaxshi samara beradi. Shuningdek, ikkita til qoidalarini qiyoslab o'rganish talabada tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.